



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari .....	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri .....	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality .....	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari .....	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni .....	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish .....	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari .....	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) .....	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish .....	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili .....	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlarini (Learning outcomes) asosida .....	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari .....	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish .....	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi .....	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdorovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli .....	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni .....	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ .....	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish .....	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari .....	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati .....	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	190
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar) .....	195
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari .....	199
<i>Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati .....	202
<a href="#">Baymanova Feruza Abralovna</a>	
Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari .....	207
<a href="#">Xayitova Ulfatoy Tursunovna</a>	
Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari .....	211
<a href="#">Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich</a>	
Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi	216
<a href="#">Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li</a>	
Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры и начал анализа президентской школы .....	225
<a href="#">Шахноза Холмуродова Зоир кизи</a>	
O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli .....	234
<a href="#">Farsaxonova Mastura Jalol qizi</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli .....	241
<a href="#">Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi</a>	
Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi .....	244
<a href="#">Sitara Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdaviyat qizi</a>	



# RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOR BOLALAR TA'LIMIDA IKKILAMCHI CHEKLOVLARNI KAMAYTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti

Maxsus pedagogika (logopediya) ta'lim yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarning yuzaga kelish mexanizmlari tahlil qilinib, ularni kamaytirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqotda diagnostik kuzatuv, individual ta'lim yo'nalishini loyihalash, differensial topshiriqlarni qo'llash, yordamchi kommunikatsiya hamda raqamli moslashuv vositalarini integratsiyalash metodlaridan foydalanilgan. Ilmiy yangilik sifatida ta'lim texnologiyalarini tanlash mezonlari va monitoring ko'rsatkichlari taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** ikkilamchi cheklovlar; maxsus pedagogika; inklyuziv ta'lim; individuallashtirish; differensial ta'lim; yordamchi kommunikatsiya; moslashtirilgan baholash.

**Abstract:** The mechanisms underlying the emergence of secondary limitations in the education of children with developmental impairments are analyzed, and the pedagogical effectiveness of educational technologies aimed at reducing them is substantiated. The study employs diagnostic observation, individual learning trajectory design, differentiated tasks, augmentative and alternative communication, as well as the integration of adaptive digital tools. The scientific novelty of the research lies in the proposed criteria for selecting educational technologies and the development of monitoring indicators for evaluating learning outcomes.

**Key words:** secondary limitations; special education; inclusive education; individualized instruction; differentiated learning; augmentative and alternative communication; adapted assessment.

**Аннотация:** Проанализированы механизмы формирования вторичных ограничений в обучении детей с нарушениями развития и обоснована педагогическая эффективность образовательных технологий, направленных на их снижение. В исследовании использованы методы диагностического наблюдения, проектирования индивидуальной образовательной траектории, дифференциации заданий, интеграции альтернативной и дополнительной коммуникации, а также цифровых адаптивных средств. Научная новизна работы заключается в разработке критериев отбора образовательных технологий и системы мониторинга результатов.

**Ключевые слова:** вторичные ограничения; специальная педагогика; инклюзивное образование; индивидуализация; дифференцированное обучение; альтернативная и дополнительная коммуникация; адаптированное оценивание.

## KIRISH

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida birlamchi nuqson bilan bog'liq qiyinchiliklar ko'pincha o'quv jarayonining noto'g'ri tashkil etilishi, kommunikatsion imkoniyatlarning cheklanishi, moslashtirilmagan baholash va ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida ikkilamchi cheklovlarga aylanadi.

Ikkilamchi cheklovlar deganda bola rivojlanishidagi boshlang'ich buzilishdan bevosita kelib chiqmaydigan, biroq ta'lim muhiti va o'zaro ta'sir sifati natijasida shakllanib, funksional mustaqillik, o'qish motivatsiyasi, nutqiy-amaliy faollik hamda ijtimoiy moslashuvni pasaytiradigan barqaror to'siqlar tushuniladi. Ularning xavfi shundaki, ular vaqt o'tishi bilan "nuqsonning o'zi" sifatida qabul qilinib, pedagogik imkoniyatlarni toraytiradi.

Aslida esa ikkilamchi cheklovlar ko'pincha to'g'ri tanlangan ta'lim texnologiyalari, muhitning moslashuvi va tizimli qo'llab-quvvatlash orqali kamaytiriladi <sup>[1]</sup>. Shuning uchun maxsus pedagogika va logopediya yo'nalishida texnologik yondashuvni nafaqat metodlar majmui, balki natijaga yo'naltirilgan, monitoring qilinadigan pedagogik tizim sifatida asoslash dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalarini nazariy asoslash va amaliy qo'llash mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Mazkur

maqsadga erishishda ikkilamchi cheklovlarning tipologiyasi, ularning paydo bo'lishiga olib keluvchi didaktik risklar hamda texnologiyalarni tanlash mezonlari tahlil qilinadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Metodologik asos sifatida madaniy-tarixiy yondashuv va yaqin rivojlanish zonasi g'oyasi, faoliyat yondashuvi, shuningdek, inklyuziv ta'limda universal dizayn tamoyillari o'zaro bog'langan holda ko'rib chiqiladi <sup>[3]</sup>. Bunda bolaning "kamchiligi"dan ko'ra, uning ta'limda ishtirok etish shartlari, aloqa kanallari, topshiriq tuzilishi va baholash usullarining mosligi markazga chiqariladi. Ayniqsa, o'quv vazifalarining kognitiv yuklamasi, nutqiy talablar va ijtimoiy o'zaro ta'sir darajasi muvozanatlanmasa, birlamchi qiyinchiliklar ikkilamchi motivatsion pasayish, o'rganilgan o'zgarish, negativ xulqiy reaksiyalar yoki kommunikativ chekinish ko'rinishida chuqurlashadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalarining samaradorligini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, diagnostik suhbat, maxsus ehtiyojli bolalarning o'quv faoliyatini monitoring qilish hamda o'qituvchi va ota-onalar bilan o'tkazilgan so'rovnoma orqali yig'ildi. Shuningdek, individual ta'lim yo'nalishlari, moslashtirilgan topshiriqlar va yordamchi kommunikatsiya vositalarining amaliy qo'llanish jarayoni tahlil qilindi.

Tadqiqotda bolaning topshiriqqa kirishish tezligi, mustaqil bajarish darajasi, kommunikativ faolligi va o'quv motivatsiyasidagi o'zgarishlar asosiy ko'rsatkich sifatida baholandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy, tavsifiy va interpretatsion tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, ta'lim texnologiyalarining ikkilamchi cheklovlarni kamaytirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Monitoring natijalari orqali qo'llanilgan texnologiyalarning funksional samaradorligi hamda ularning ta'lim jarayoniga moslashuv darajasi baholandi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari konseptual jihatdan uch yo'nalishga ajratiladi: pedagogik muhitni moslashtirish texnologiyalari, o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiallash texnologiyalari hamda kommunikatsiyani qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar.

Muhitni moslashtirishda sinfning vizual tashkiloti, jadval va rutinalarni aniq ifodalash, sensor ortiqcha yuklamani kamaytirish, xavfsiz va bashorat qilinadigan ta'lim makonini yaratish muhimdir. Bu elementlar "yumshoq" tashkiliy choralar bo'lib ko'rinsa-da, aynan ular diqqatni jamlash, o'zini boshqarish va topshiriqqa kirishish uchun zarur psixologik tayanchni beradi. Natijada ikkilamchi bezovtalik va qarshilik reaksiyalari pasayadi <sup>[4]</sup>.

Muhit moslashuvi texnologiya sifatida natijaga bog'lanishi uchun u individual ehtiyojlar xaritasi bilan birga qo'llanadi: bolaning sensor profili, ish sur'ati, dam olish ehtiyoji, ko'rsatma qabul qilish usuli va mustaqillik darajasi oldindan aniqlanadi hamda muntazam yangilanadi.

Individuallashtirish va differensiallash texnologiyalari ikkilamchi cheklovlarning asosiy manbalaridan biri bo'lgan "bir xil talab" muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarda o'quv natijasi ko'pincha bilimning mavjudligi emas, uni namoyon etish kanallari va topshiriq formati bilan belgilanadi. Shuning uchun moslashtirilgan topshiriqlar dizayni, ko'rsatmalarni bosqichlash, modellashtirish, ko'mak darajalarini rejalashtirish (prompting) va asta-sekin yordamni kamaytirish (fading) ikkilamchi akademik muvaffaqiyatsizlikni kamaytiruvchi asosiy didaktik mexanizm hisoblanadi <sup>[2]</sup>. Bu yerda texnologik yondashuv shundan iboratki, o'qituvchi "yordam berish"ni intuitiv tarzda emas, balki oldindan belgilangan algoritm asosida amalga oshiradi: vazifa minimal kirish talabi bilan beriladi, bajarish jarayoni kuzatiladi, qiyinchilik nuqtasida aniq turdagi ko'mak qo'llanadi va keyingi urinishlarda ko'mak darajasi reja asosida qisqartiriladi. Natijada bola doimiy tashqi yordamga qaram bo'lib qolmaydi, ikkilamchi passivlikning oldi olinadi.

Kommunikatsiyani qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar ikkilamchi cheklovlarning eng og'riqli ko'rinishi bo'lgan "muloqot yetishmovchiligi"ni kamaytiradi. Agar bola o'z ehtiyojini, tanlovini, tushungan yoki tushunmaganini ifodalay olmasa, ta'lim jarayonida "noto'g'ri xulq" deb talqin qilinadigan ko'plab reaksiyalar yuzaga keladi. Aslida bu ko'pincha kommunikativ vositasizlik natijasidir. Shu sababli yordamchi va alternativ kommunikatsiya vositalarini (piktogramma, kommunikativ kitob, jest tizimlari, oddiy qurilmalar yoki ilovalar) darsning tabiiy tarkibiga kiritish zarur <sup>[6]</sup>. Bunda texnologiya faqat vosita tanlash bilan cheklanmaydi: o'qituvchi va ota-ona uchun yagona belgilar tizimi, uni qo'llash qoidalari, kuchaytirish mexanizmi, muloqot tashabbusini rag'batlantirish hamda darsdagi barcha faoliyatlarda izchil qo'llash talabi ishlab chiqiladi. Kommunikatsiya imkoniyati kengayganda ikkilamchi emotsional zo'riqish, o'zini chetga olish, topshiriqdan qochish kabi holatlar kamayib, o'quv faoliyatiga kirishish tezlashadi.



Raqamli moslashuv vositalari ikkilamchi cheklovlarni kamaytirishda qo'shimcha resurs sifatida ko'riladi, ammo ularni "texnologiya o'rnini bosuvchi" yechim sifatida ideallashtirish ilmiy jihatdan asosli emas. Raqamli vosita faqat didaktik maqsad, shaxsiy ehtiyoj va monitoring tizimi bilan bog'langandagina samarador bo'ladi. Masalan, adaptiv mashqlar bolaning ish sur'atini hisobga olishi, xatolar profilini qayd etishi va o'qituvchiga tahliliy ma'lumot berishi orqali differensiallashni kuchaytiradi. Biroq kontent nutqiy ko'rsatmalar bilan haddan tashqari yuklangan bo'lsa, aksincha, ikkilamchi muvaffaqiyatsizlikni kuchaytirishi mumkin <sup>[4]</sup>. Shu sababli raqamli moslashuv mezonlari sifatida kirish imkoniyati (accessibility), kognitiv yuklamaning me'yoriligi, qayta aloqa sifati, motivatsion dizaynning neytralligi va o'qituvchi nazoratining saqlanishi taklif etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalarini tanlash va joriy etish uchun mezonlar tizimini taklif etish bilan izohlanadi.

**Birinchi mezon funksional natijaga yo'naltirilganlik** bo'lib, bunda natija faqat fan bo'yicha ball emas, balki bolaning mustaqil boshlashi, ko'rsatmani tushunishi, muloqot tashabbusi, o'zini boshqarishi va transfer qila olishi (ko'nikmani boshqa vaziyatga ko'chirish) ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

**Ikkinchi mezon barqarorlik va izchillik** bo'lib, texnologiyaning sinf, uy va rehabilitatsiya muhitida bir-birini inkor etmaydigan tarzda qo'llanishini talab qiladi. Aks holda bola turli qoidalar orasida qolib, ikkilamchi dezadaptatsiya kuchayadi.

**Uchinchi mezon minimal yetarlilik** bo'lib, ortiqcha ko'mak emas, aynan kerakli ko'makni berish tamoyiliga asoslanadi. Bu bolaning agentligi va o'ziga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlaydi <sup>[3]</sup>.

**To'rtinchi mezon monitoring qilinuvchanlik** bo'lib, har bir texnologik yechim uchun kuzatiladigan indikatorlar belgilanadi: topshiriqqa kirishish vaqti, mustaqil bajarish ulushi, xato turlari, muloqot signallari soni, xulqiy epizodlar chastotasi hamda o'quv materialini umumlashtirish darajasi.

Amaliy qo'llash mexanizmi uch bosqichda ko'rib chiqiladi.

**Birinchi bosqichda** pedagogik diagnostika o'tkazilib, ikkilamchi cheklovlar risk xaritasi tuziladi: qaysi vaziyatda bola ko'proq qiyinlanadi, qaysi talablar ortiqcha, qaysi kommunikatsiya kanali samarali hamda qaysi kuchaytiruvchi omillar mavjudligi aniqlanadi.

**Ikkinchi bosqichda** individual ta'lim yo'nalishi va texnologik paket loyihalanadi. Unda muhit moslashuvi, topshiriq dizayni, ko'mak algoritmi, kommunikatsiya vositalari va baholash moslashuvi yagona tizimga birlashtiriladi.

**Uchinchi bosqichda** dinamik monitoring asosida texnologiyalar kalibrlanadi: agar ko'rsatkichlar yaxshilansa, "bola qila olmaydi" degan xulosadan oldin topshiriq talabi, ko'rsatma formati, ko'mak darajasi va motivatsion shartlar qayta ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv ikkilamchi cheklovlarni shaxsiy kamchilik emas, balki ta'lim tizimidagi sozlanadigan parametr sifatida talqin qilish imkonini beradi <sup>[1]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytirish texnologiyalarning ko'pligiga emas, balki ularning maqsadga muvofiq tanlanishi, izchil integratsiyasi va monitoring asosida boshqarilishiga bog'liq. Muhitni moslashtirish, individuallashtirilgan va differensial o'qitish, yordamchi kommunikatsiya hamda raqamli adaptiv vositalarni yagona pedagogik dizayn doirasida qo'llash bolaning o'quv jarayonida ishtirokini kengaytiradi, mustaqilligini oshiradi va ikkilamchi motivatsion hamda xulqiy to'siqlarning oldini oladi. Taklif etilgan mezonlar va indikatorlar esa texnologik qarorlarni ilmiy asosda tanlash hamda natijani funksional ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л. С. Основы дефектологии. – Москва: Педагогика, 1983. – 368 с.
2. Зыков С. А. Специальная педагогика: учебное пособие. – Москва: Академия, 2012. – 256 с.
3. Назарова Н. М. Специальная педагогика: учебник. – Москва: Академия, 2013. – 352 с.
4. Rose D. H., Meyer A. Teaching Every Student in the Digital Age: Universal Design for Learning. – Alexandria: ASCD, 2002. – 205 p.
5. Sattler J. M. Assessment of Children: Cognitive Foundations. – San Diego: Jerome M. Sattler, Publisher, 2008. – 1056 p.
6. Миронова Т. В. Альтернативная и дополнительная коммуникация в обучении детей с ОВЗ: методическое пособие. – Санкт-Петербург: Речь, 2016. – 192 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.